

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZOYEV SHARIFJON MIRSHAKAROVICH

**1950-1970-YILLARDA BUXORO VILOYATIDA IRRIGATSIYA
VA MELIORATSIYA INSHOOTLARINI QURILISH TARIXI**

07.00.01 - O‘zbekiston tarixi

**TARIX fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
historical sciences**

Mirzoyev Sharifjon Mirshakarovich

1950–1970-yillarda Buxoro viloyatida irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini
qurilish tarixi3

Мирзоев Шарифжон Миршакарович

История строительства ирригационных и мелиоративных сооружений в
Бухарской области в 1950–1970 гг.25

Mirzoyev Sharifjon Mirshakarovich

History of construction of irrigation and melioration facilities in Bukhara region in
1950–1970s.49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....54

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZOYEV SHARIFJON MIRSHAKAROVICH

**1950–1970-YILLARDA BUXORO VILOYATIDA IRRIGATSIYA VA
MELIORATSIYA INSHOOTLARINI QURILISH TARIXI**

07.00.01 - O‘zbekiston tarixi

**TARIX fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1233 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rashidov Oybek Rasulovich,
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Agzamxodjaev Saidakbar Saidovich
tarix fanlari doktori, professor

Komilov Oybek Kamilovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “6” *yanvar* soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Buxoro shahar, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy, 200117. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-26-12; e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ *567* - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Buxoro shahar, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy, 200117. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “*21*” *dekabr* kuni tarqatildi

(2024-yil “*21*” *dekabr*” *dagi 6* - raqamli reyestr bayonnomasi)



F.B. Ochildiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari, tarix
fanlari doktori (DSc), professor

A.T. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, tarix fanlari
doktori (DSc), dotsent

K.R. Rahimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi Ilmiy seminar
raisi, tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda aholi salmog‘ining muntazam ortib borishi o‘z navbatida dunyoning turli mintaqalarida suvga bo‘lgan talabning keskin oshishga olib keldi. Yer kurrasida istiqomat qilayotgan har 10 nafar aholidan 4 nafarida suv taqchilligi, 90 foiz tabiiy ofatlar esa suv muammosi ta‘sirida sodir bo‘lmoqda. Hatto yetarli suv resurslariga ega mamlakatlarda ham ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyoj uchraydi. Bunga esa infratuzilmaning qulashi, tabiatning ifloslanishi, suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish, iqlim o‘zgarishi hamda inson omillari ta‘sir ko‘rsatadi¹. Shu boisdan suv muammosi va uni bartaraf etishning tarixiy ildizlarini, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari tarixini har tomonlama o‘rganish dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot muassasalarida sug‘orilish tarmoqlari, inshootlari va irrigatsiya tarixi, suv inshootlarining qurulishi va uni tartibga solishning tarixiy tajribalari, ma‘lum hududning obod bo‘lishida va iqtisodiy taraqqiy etishida irrigatsiya tarmoqlarining tarixiy asoslari borasida samarali izlanishlar olib borilmoqda. Natijada irrigatsiya tizimining rivojlanishi, uning o‘tmishdagi va hozirdagi ahamiyati, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining qurulish tarixi borasida bir qator ma‘lumotlar olindi. Lekin, hali hanuz sug‘orish tizimlarini loyihalash, irrigatsiya-melioratsiya va gidrotexnik inshootlarning tarixini, irrigatsiya texnikasi bo‘yicha asrlar mobaynida to‘plangan boy tajribani ochib berish muammosi o‘z yechimini kutmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Buxoro viloyatida ekin maydonlarini ekstensiv usulda ko‘paytirish, suvga bo‘lgan ehtiyoj, qishloq xo‘jaligi hosildorligini oshirish kabi muammolarni bartaraf etish jarayonida vujudga kelgan irrigatsiya-melioratsiya, qurilish-ta‘mirlash jarayoning tashkiliy jihatlari, irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari holatini sug‘orma dehqonchilikka ta‘sirini ochib berishga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlar murakkab tizim sifatida tahlil qilinmoqda. “Bugun dunyoda ekologik muammolar, tabiiy ofatlar ko‘payib bormoqda. Bizning mintaqamizga suv tanqisligi xavf solmoqda. Shu bois mamlakatimizda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish, bu ne‘matni asrash bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda”². Shundan kelib chiqqan holda boisdan viloyat irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining qurilishi, loyihalash, tashkiliy va xo‘jalik muammolari, suv xo‘jaligi yutuq va xatolarini ochib berish muammosi o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm fanni 2030-yilgacha

¹ Water scarcity Addressing the growing lack of available water to meet children’s needs. <https://www.unicef.org/wash/water-scarcity>

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 7-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidani. <https://president.uz/uz/lists/view/7676>

rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida’gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida’gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida’gi Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrda qabul qilingan “2019-2023-yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuga oid e‘lon qilingan tadqiqotlarni uch guruhga ajratish mumkin: 1) sovet davrida yaratilgan asarlar va adabiyotlar; 2) mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar; 3) xorijda chop etilgan ishlar.

Birinchi guruhni sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlar tashkil etib, ularda 1950–1970-yillarda O‘zbekistonda, irrigatsiya-melioratsiya sohasidagi islohotlar va modernizatsiya³, inshootlarning texnik-texnologik xususiyatlari⁴, suv xo‘jaligi taraqqiyoti va istiqbollari⁵, Respublikadagi suv qurilish tarixi⁶, hukumat rahbarlari va soha mutasaddilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va taklif-tavsiyalarda⁷, irrigatsiya-melioratsiya tizimi holati va samaradorigi kabilar haqida

³ Мамедов А.М. Развитие и ирригации Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1967. – 287 с.; Джаббаров Н. Развитие орошения в Узбекистане и его перспективы. – Ташкент: Фан, 1968. – 88 с.; Абдурахмонова Т. Ўзбекистонда ирригациянинг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 37 б.; Усманов В. К. Социально-экономические последствия комплексного освоения целинных земель. – Ташкент: Узбекистан, 1975.; Основные показатели выполнения плана по Главному управлению водохозяйственного строительства Узбекской ССР за... Текст : (Срочные данные) / Глав. упр. водохозяйств. строительства Уз. ССР. Планово-экон. упр. январь – ноябрь 1967 года. – Ташкент, 1967. – 14 с.;

⁴ Рахматов Г.А. Экономическая эффективность повышения водообеспеченности орошаемых земель Узбекской ССР (Напримере зоны влияния Аму-Бухарского машинного канала). дисс.... кан. экон. наука. – Ташкент, 1988. – 196 с. Инженерные мероприятия по борьбе с засолением орошаемых земель. Сборник научных трудов. Выпуск 148. – Ташкент, 1976. – 176 с.; Чаплигин А.В. Регулирование водного хозяйства Зарафшанское долина. – Москва: ВСНХ – СССР, 1925. – 256 с. Экономика и культура Бухарской области после великого октября. – Бухара, 1969. – 259 с.

⁵ Тилекулов С. Социалистическое преобразование и развитие орошаемого земледелия Узбекистана (1917 – 1965 гг.) дисс....док. истор. наука. – Ташкент, 1983 – 415 с.; Фофуров А. Ирригация ва мелиорацияни ривожлантиришнинг иқтисодий проблемалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 125 б.; Гафуров В.Г. Вопросы орошения целинных земель Голодной степи. – Ташкент: Узбекистан, 1968 – 167 с.; Хошимова М.Т. Разработка и исследование методов программного управления в системах водохозяйственного строительства (на примере Узбекской ССР) дисс. ...кан.экон.наук. – Ташкент, 1985. – 128 с.; Эгамбердиев В. Ўзбекистонда қўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорация тарихи. – Тошкент: Фан, 1984. – 282 б.

⁶ Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси таридан лавҳалар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги мерос нашриёти, 1998. – 137 б.; Абдуллаев Т.Ш. Передовой опыт в ирригационном строительстве. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – 143 с. Тагиев М.М. Из истории ирригационного строительства низовьев Зарафшанской долины. – Тошкент: Фан, 1978. – С. 96.

⁷ Хрущев Н.С. О мерах дальнейшего развития сельского хозяйства СССР. Госполитиздат, 1953. – 71 с. Рашидов Ш.Р. Ирригация и социалистические преобразования в советских республиках Средней Азии: Доклад на Первой регион. конфер. Международн. комис. по ирригации и дренажу стран Азии и Африки. – Ташкент: ЦК КПУз, 1976. – 27 с. Шу муаллиф Рашидов Ш.Р. О дальнейшем развитии хлопководства в свете

ma'lumot berib o'tiladi. Ushbu ishlar kommunistik mafkura ta'sirida yaratilgan bo'lsa-da, ularda katta hajmdagi dalil hamda raqamlar keltirilgan.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar mansub bo'lib, ularda sovet hukumatining O'zbekistondagi paxta yakka hokimligi hamda agrar siyosati, Respublika viloyatlarida amalga oshirilgan irrigatsiya-melioratsiya inshootlari qurilish jarayoni tarixi obyektiv va xolisona asosda, asl manbalar orqali o'rganilgan. Ushbu izlanishlarda sovet hokimiyati qishloq xo'jaligi tizimida olib borgan siyosatining asl mohiyati ochib berilgan. Bu borada tarixchi olimlar A.Abdullayev, A.Ashirboyeva, B.Sidiqov, N.Oblomurodov, S.Tursunov ⁸ tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin. 1950–1970-yillari O'zbekistondagi irrigatsiya-melioratsiya masalalari O.Komilov, I.Jabborova, M.Ro'zikulovalar ⁹ tomonidan ayrim hududlar misolida tadqiq etilgan. Shu o'rinda sovet davridagi agrar o'zgarishlarni respublika hududlarida tatbiq etilishiga bag'ishlangan, jumladan, Buxoro suv xo'jaligi tarixiga qaratilgan tadqiqotlarda ¹⁰ viloyat irrigatsiya-melioratsiya tizimlari va sug'orma dehqonchilik masalalarining ayrim jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Uchinchi guruhga xorijda yaratilgan tadqiqotlar mansub bo'lib, ularda 1950-1970-yillarda Sovet Ittifoqining sug'orma dehqonchlik borasidagi strategiyasi, ittifoqdosh respublikalar o'rtasida suv resurslari taqsimotidagi jumboqlar, suv

решений XXV съезда КПСС: Доклад на науч. сессии ВАСХНИШ – Дальнейшее развитие хлопководства в СССР и задачи науки. 12 – 14 сент. 1977. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 54 с. Калинин М.И. Основные задачи сельского хозяйства в связи с общим развитием народного хозяйства и индустриализации страны. – збранные произведения (в 4-х томах), т. П (1926 – 1932 гг.). – М.: Госполитиздат, 1960. – 784 с.

⁸Аширбоева А. XIX асрнинг охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Тарих фан.ном. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 158 б; Турсунوف С.Н. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантириш йўлидаги уринишлар. (1945 – 1965 йй) Ниятлар ва натижалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 194 б. Сиддиков Б. Социально-экономические аспекты развития совхозного производства Узбекистана в 1965 – 1985 гг. Опыт, уроки, проблемы. дисс....док. ист. наука. – Ташкент, 1994. – 287 с., Обламурадов Н. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971 – 1990 гг. Опыт, уроки и проблемы: Автореф. дисс. ... докт.истор.наук. – Ташкент, 1994. – 52 б. Абдуллаев А. Пахта якка ҳокимлиги: оқибат ва сабоқлар: (1917 – 1991). – Тошкент: Истиклол, 2006. – 135 б.

⁹Очилов Н. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация ишлари (1946 – 1964). – Тошкент: Фан, 1991. – 104 б. Насритдинов Қ.М. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация қурилишининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари (1981 – 1990 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс. – Андижон, 1994. – 147 б.; Комилов О. Ўзбекистонда ирригация тизимлари ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951-1991 йй): Тарих фан.докт. дисс. – Андижон, 2017. – 324 б.; Рўзикулова М. Марказий Фарғона қўриқ ерларининг ўзлаштирилиши ва суғорилиши тарихи (XX асрнинг 50 – 70-йиллари мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қўқон – 2021. – 186 б.; Жаббарова И. Қашқадарё воҳасида янги ерларнинг ўзлаштирилиши ва суғориш тизими тарихи (XX асрнинг 50-80 йиллари мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2021. – 157 б.

¹⁰Шураев В. Мирабы Кызылкумов. – Бухара, 2004. – 88 с.; Шураев В. “... колодец в пустыне вырыл” Очерк о заслуженной ирригаторе Узбекистана И.И.Икрамов. – Бухара, 2001. – 31. с. Ризаев Х. Вобкентнома. – Бухоро, 2007. – 407 б.; Солиев Б., Шодиев С. Саҳродаги гул: (Қоровулбозор тумани ўтмиши ва бугуни ҳақида лавҳалар). – Тошкент: Шарқ, 2000. – 224 б.; Тошов Х.Р., Рахимов О.Х., Ҳикматова Г.И. Сув кадри (Бухоро вилояти сув ресурслари тарихи, географияси ва иқтисодиётдан лавҳалар). – Бухоро, 2018. – 54 б.; Ризаев Б. Ўзбекистонда 1950 – 1970 йиллари янги ерларни ўзлаштириш жараёнида аҳолини кўчириш сиёсати (Бухоро области мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021. – 210 б.

qurilish ishlaridagi qiyinchiliklar (og‘ir va majburiy mehnat) ga oid ma’lumotlar berib o‘tilgan¹¹.

Muammo tarixshunosligining tahliliga ko‘ra xulosa qilish mumkinki, 1950–1970-yillari Buxoro viloyati irrigatsiya-melioratsiya qurilishi yaxlit tadqiqot doirasida o‘rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuni dissertatsiya sifatida tadqiq qilishni taqozo etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sovet hukumatining agrar islohotlari doirasida bajarilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini Buxoro viloyat tajribasi misolida o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyat dalalarining suvga bo‘lgan ehtiyoji va sug‘orish tizimlarini rivojlantirish zaruriyatini ko‘rsatib berish;

partiya, sovet va xo‘jalik organlarining suvxo‘jaligi tizimidagi hamkorligi tarixini o‘rganish;

sug‘orish tizimi loyihalari mazmunini ochib berish;

irrigatsiya-melioratsiya va gidrotexnik obyektlar qurilishi ko‘lami va iqtisodiy foydasini baholash;

qurilish obyektlarni mehnat resurslariga bo‘lgan talabi va uni qondirish tajribasini o‘rganish;

Buxoro suv xo‘jaligi ishlab chiqarish va tashkiliy muammolarni aniqlash;

yangi sug‘orish tizimining viloyat xalq xo‘jaligi rivojiga ta’sirini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini Buxoro viloyatida 1950–1970-yillari amalga oshirilgan irrigatsiya-melioratsiya inshootlari qurilishi tarixi etib belgilandi.

Tadqiqotning predmetini viloyat suvxo‘jaligi holati, yangi obyektlarni loyihalash, qurilish, ta’mirlash, tiklash, rekonstruksiya qilish hamda irrigatsiya-melioratsiya tizimining yutuq va muammolari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, ilmiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik, aniq tarixiy sharoitda raqam va dalillarga tayanish kabi metod hamda usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekiston hududida mavjud yangi va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish borasidagi davlat dasturlarini amaliyotga tatbiq etilishi, Zarafshon daryosi suvining keskin kamayib ketishi, yerlarda sho‘rlanishning kuchayishi Buxoro viloyati irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarni tubdan isloh qilish zaruriyatini yuzaga keltirgani, shundan kelib chiqib Jondor, Romitan, Vobkent

¹¹ Peoples of the Earth. Volume 03. Europe (including U.S.S.R. west of the Urals). Supervisory Editor of the series. Professor Sir Edward Evans-Pritchard – The Danbury Press, 1973. – 144 p.; Polian Pavel Agaits Their Will: The History and Geography of Forced Migrations in the USSR Central European University Press, 2003. – 444 p.

tumanlarida yerlarni shoʻrdan tozalash ishlari, jamoa xoʻjaliklarida gidrotexnik inshootlarni qurish, Quyimozor suv omborini qurilish-montaj ishlari, suv dambalari orqali suvlarni boshqarish amalga oshirilgan boʻlsada yutuqlar, qurilishda belgilangan vazifa va rejalar koʻrsatgichidan ancha past boʻlganligi asoslangan;

Buxoro viloyatida 1950-yillar irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarining qurilishi-taʼmirlash ishlarini amalga oshirish maʼlum loyihalarga tayangan holda olib borilsada, yirik irrigatsiya inshootlari qurish uchun viloyat yetarli ishchi kuchiga ega emasli, ayrim hollarda loyihalar toʻliq rejadagidek tugatilmagani, bu esa irrigatsiya tizimida yana muammolarga olib kelgani, 1970-yillarga kelib kadrlar salohiyati sezilarli oshganligi, viloyat suv xoʻjaligi sohasi, jumladan, suv qurilishi tarmoqlarini rivojlantirishda loyiha-qiriduv, ilmiy-tadqiqot va loyiha-smeta ishlari muhim ahamiyat kasb etganligi dalillangan;

Buxoro viloyat suv xoʻjaligi organlari tuzulmasi ish tartibi, mehnat intizomi, moddiy-texnik va malakaliy kadrlar bilan taʼminlash tizimini tartibga solinishi hamda yagona tarmoqqa muvofiqlashtirish irrigatsiya-melioratsiya obyektlari qurilishida muhim ahamiyat kasb etganligi, sohaga aloqador har bir tarmoqda ilmiy-loyihalash, ilmiy-tekshirish va ilmiy –tadqiqot muassasalari (“Средазгипрорводхлопок” instituti filiali, “Узгипрорводхоз” loyiha-qidiruv institutiga aylantirilishi, Oʻzdaverloyiha instituti Buxoro filiali ish boshlashi, Buxoro viloyat suv xoʻjaligi tizimi bosh boshqarmasi huzurida loyiha guruhi) paydo boʻlishi sohadagi muammolarni bartaraf etishda va viloyat sugʻorish tizimini yaxshilagani asoslangan;

XX asrning 60-yillarida viloyatda yuzaga kelgan qurgʻoqchilik viloyatda irrigatsiya tizimidagi rejalarini oʻzgarishiga sabab boʻlgani, bu jarayon tizimda texnik-tashkiliy muammolar (elektr liniyasini oʻtkazish kechikoshi, beton zavodi ishga tushirilishining orqaga surilishi, gaz magistral quvurlari kesuvchi nuqtalarda ishlar toʻxtab qolishi, texnik uskunalar va nasoslar uchun elektr oʻtkazgichlar taʼminotida uzilish)ni yuzaga keltirgani, 1970-yillar oxiriga kelib toʻliq quvvat bilan ishga tushirilgan yangi sugʻorish tizimi (Amu-Qorakoʻl, Amu-Buxoro mashinna kanallari) viloyat xoʻjaliklari suv taʼminotini yaxshilab, qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligini sezilarli oshirishga xizmat qilgani isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyat xoʻjaliklarini suvga boʻlgan ehtiyoji, sugʻorish tarmoqlari holati, irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini loyihalash, qurish, tiklash, taʼmirlashga doir ilmiy xulosalardan sovetlar davri tarixini yoritishda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan jihatlar Buxoro viloyati misolida aniqlangan.

Suv xoʻjaligi sohasini rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalar asosida viloyat xoʻjaliklarida suv tejamkor texnologiyalarini joriy etish, suvga chidamli ekin navlarini kashf etish, suvdan foydalanish madaniyatini oshirish, suv taqsimotini yangi zamonaviy metod asosida tashkil etishda nazariya va amaliyot uygʻunligini taʼminlash zarurligi koʻrsatib oʻtilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada tarix fanida tan olingan zamonaviy yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi arxiv hujjatlari, tarixiy adabiyotlardan, davriy matbuot va dala suhbat materiallaridan foydalanilganligi, keltirilgan materiallar birlamchi manbalarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* sovet hokimiyati davrida Buxoro viloyatida sug‘orish tarmoqlari qurilish-ta‘mirlash ishlari, suv xo‘jaligi tizimi islohotlari va qishloq xo‘jaligi sohasidagi irrigatsiyaning ahamiyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish O‘zbekiston tarixining qishloq xo‘jaligi, qurilish-ta‘mirlash va iqtisodiy jihatlarini yangi ma‘lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* suv xo‘jaligini rivojlantirishga mo‘ljallagan davlat dasturlarini ishlab chiqishda, oliy o‘quv yurtlari va ta‘limning boshqa bosqichlarida O‘zbekistonning sovet mustabid tuzumi davri tarixidan darslik, o‘quv-qo‘llanma va monografiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1950–1970-yillari Buxoro viloyatida irrigatsiya va melioratsiya inshootlari qurilishi jarayoni muammosini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflar asosida:

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekiston hududida mavjud yangi va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish borasidagi davlat dasturlarini amaliyotga tatbiq etilishi, Zarafshon daryosi suvining keskin kamayib ketishi, yerlarda sho‘rlanishning kuchayishi Buxoro viloyati irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarni tubdan isloh qilish zaruriyatini yuzaga keltirgani, shundan kelib chiqib Jondor, Romitan, Vobkent tumanlarida yerlarni sho‘rdan tozalash ishlari, jamoa xo‘jaliklarida gidrotexnik inshootlarni qurish, Quyimozor suv omborini qurilish-montaj ishlari, suv dambalari orqali suvlarni boshqarish amalga oshirilgan bo‘lsada yutuqlar, qurilishda belgilangan vazifa va rejalar ko‘rsatgichidan ancha past bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Buxoro suv ta‘minoti” muzey filiali ekspozitsiyalaridagi boyitishda foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 21-dekabrda 04-05/4816-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalar amaliyotda muzey fondini boyitishga hamda muzeyga tashrif buyuruvchilarda Buxoro irrigatsiya va melioratsiya tarixi bo‘yicha tushunchalarini boyitishga xizmat qildi;

Buxoro viloyatida 1950-yillarda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarining qurilishi-ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish ma‘lum loyihalarga tayangan holda olib borilsada, yirik irrigatsiya inshootlari qurish uchun viloyat yetarli ishchi kuchiga ega emasli, ayrim hollarda loyihalar to‘liq rejadagidek tugatilmagani, bu esa irrigatsiya tizimida yana muammolarga olib kelgani, 1970-yillarga kelib kadrlar salohiyati sezilarli oshganligi, viloyat suv xo‘jaligi sohasi, jumladan, suv qurilishi tarmoqlarini rivojlantirishda loyiha-qiriduv, ilmiy-tadqiqot va loyiha-

smeta ishlari muhim ahamiyat kasb etganligi haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va man'aviyat" dasturlarini tayyorlashda keng foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasining 2023-yil 22-noyabrdagi 02-36-892-sonli dalolatnomasi). Berilgan ma'lumotlar teletomoshabinlarning Buxoro irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari qurilishi-ta'mirlash hamda ularning xususiyatlari borasidagi tushunchasini kengaytirishga xizmat qildi;

Buxoro viloyat suv xo'jaligi organlari tuzulmasi ish tartibi, mehnat intizomi, moddiy-texnik va malakaliy kadrlar bilan ta'minlash tizimini tartibga solinishi hamda yagona tarmoqqa muvofiqlashtirish irrigatsiya-melioratsiya obyektlari qurilishida muhim ahamiyat kasb etganligi, sohaga aloqador har bir tarmoqda ilmiy-loyihalash, ilmiy-tekshirish va ilmiy -tadqiqot muassasalari ("Средазгипрорпроводхлопок" instituti filiali, "Узгипрорводхоз" loyiha-qidiruv institutiga aylantirilishi, O'zdaverloyiha instituti Buxoro filiali ish boshlashi, Buxoro viloyat suv xo'jaligi tizimi bosh boshqarmasi huzurida loyiha guruhi) paydo bo'lishi sohadagi muammolarni bartaraf etishda va viloyat sug'orish tizimini yaxshilaganligiga doir tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2022–2023 yillar davomida bajarilgan AL-4421055887-raqamli "Raqamli arxiv: O'zbekiston Milliy arxivi fondlarining onlayn yo'l ko'rsatkichlarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda keng foydalanildi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Miliy universitetining 2024 yil 18 oktyabrdagi 04/11-9042 sonli ma'lumotnomasi). Natijada Buxoro viloyati xo'jaliklarining suvga bo'lgan ehtiyoji, sug'orish tarmoqlari holati, irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini loyihalash, qurish, tiklash, ta'mirlashga doir ilmiy dalillarning arxivda aks etgani loyiha asosida tayyorlangan monografiyani mazmunini boyitishga xizmat qildi;

XX asrning 60-yillarida viloyatda yuzaga kelgan qurg'oqchilik viloyatda irrigatsiya tizimidagi rejalarni o'zgarishiga sabab bo'lgani, bu jarayon tizimda texnik-tashkiliy muaommolar (elektr liniyasini o'tkazish kechikoshi, beton zavodi ishga tushirilishining orqaga surilishi, gaz magistral quvurlari kesuvchi nuqtalarda ishlar to'xtab qolishi, texnik uskunalar va nasoslar uchun elektr o'tkazgichlar ta'minotida uzilish)ni yuzaga keltirgani, 1970-yillar oxiriga kelib to'liq quvvat bilan ishga tushirilgan yangi sug'orish tizimi (Amu-Qorako'l, Amu-Buxoro mashinna kanallari) viloyat xo'jaliklari suv ta'minotini yaxshilab, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini sezilarli oshirishga xizmat qilgani to'g'risidagi ma'lumotlardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish" mavzusida targ'ibot ishlarini o'tkazishda foydalanildi (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar

institutining 2024 yil 29 oktyabrdagi 402/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistonning sovet mustabid tuzumi davri tarixiga doir ma'lumotlarni targ'ib qilish, bugungi kunda ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot faoliyatida foydalanish zaruratini asoslashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy konferensiya, jumladan, 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 161 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Buxoro viloyatida suv muammosi va uning bartaraf etilishi**" deb nomlangan birinchi bobda Buxoro viloyatida suv muammosining yuzaga kelishi hamda uning oqibatlari, viloyat dalalarining suvga bo'lgan ehtiyoj va sug'orish tizimlarini rivojlantirish zaruriyati kabi masalalar yoritilgan.

Tarixning barcha bosqichlarida irrigatsiya O'rta Osiyo xalqlarining asosiy ishlab chiqarish ukladini tashkil etib kelgan. Suvdan foydalanish o'lka aholisi uchun nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etgan, balki siyosiy ahamiyati ham e'tirofga loyiqdir. Jumladan, ilk o'rta asrlarda jamiyatda ijtimoiy tuzum sifatida qaror topgan feodalizmning O'rta Osiyodagi ko'rinishi mulkdorni bevosita yerga egaligi bilan emas, aksincha suv manbalariga egaligi bilan baholanadi.

Buxoro viloyati XX asr 60-yillarga qadar yagona irrigatsiya tizimi orqali sug'orilib kelingan. Ya'ni Zarafshon daryosi suvlari viloyat dalalarini suvga bo'lgan ehtiyojini qondirgan. Qadimda daryo sersuv bo'lib, Buxoro vohasiga konussimon shaklda oqib kirgan. Vobkentdaryo, Shoxrud, Qorako'ldaryo, Moxandaryo va Tayqir kabi tarmoqlar hosil qilib, butun voha bo'ylab yoyilib oqqan¹². O'zbekiston SSR hududiga to'g'ri keladigan 370 km asosiy qismi yastanib yotgan Qizilqum cho'llari tomon oqadi. Shu boisdan, suvning asosiy

¹² Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри – 2500 ёшда. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 14.

qismi xo‘jaliklar ehtiyoji uchun emas, balki havoda paranish yoxud yer ostiga shimilib ketadi.

Buxoro viloyatidagi suvsizlik XX asrning 50-yillariga kelganda har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Suv muammosi sovetlar tomonidan O‘zbekiston SSRda olib borilgan ijtimoiy-siyosiy tadbirlarning bir-biriga qarama-qarshiligi tufayli ko‘ndalang bo‘lib qoldi. Zarafshon daryosidan Buxoro viloyatiga oqib keluvchi suv hajmi yil sayin nihoyatda tushib, qadimda Amudaryoga quyilgan. Zarafshon 1950-yillarda eski o‘zan Tayqir daryosi orqali ko‘z ilg‘amas irmoqqa aylanib, kichik Dengizko‘l (Olot tumanida)gacha arang yetib kelardi¹³.

Markaz tashabbusi bilan olib borilgan izlanishlar quyi Zarafshon havzasida foydalanishga yaroqli bo‘lgan 1.800 ga yer borligini ko‘rsatdi. Biroq Zarafshon daryosi suv hajmi 6,2 mlrd m³ ni tashkil etib, 1960-yil holatida jami: 557 ming ga yerni sug‘orish mumkin bo‘lardi¹⁴. Yer fondini oshirishga arang erishgan viloyat mutasaddi rahbarlari yangi yerlarni suv bilan ta‘minlashga kelganlarida chorasiz qoladilar. Oqibatda katta sarf-xarajatlar bilan o‘zlashtirilgan qo‘riq va bo‘z yerlar yaylov hamda sho‘rlangan yerlarga aylanadi.

Yangi sug‘orish tizimlariga o‘tish Buxoro viloyatida Zarafshon daryosida mavjud Xarxur, Duoba, Moxonko‘l kabi inshootlar avariya holatida ekanligini ko‘rsatdi. 1951-yilda Respublika Suv Xo‘jaligi Vazirligi Buxoro viloyati rahbariyatini yuqorida qayd etilgan obyektlarni zudlik bilan transport hamda ishchi kuchi bilan ta‘minlashni talab qildi. Sababi yog‘ingarchilik miqdori me‘yoridan bir necha bor ortiq bo‘lishi kutilayotgani, daryo suv sathi nihoyatda ko‘tarilishi oqibatida irrigatsiya inshootlari talofat ko‘rishi mumkinligidan ogohlantiradi¹⁵. Demak, suv mo‘l bo‘lgan yillarda ham viloyat ekin maydonlariga suvni teng va barqaror taqsimlash imkoni bo‘lmagan. Suv yo‘llari, kollekt va zarur tarmoqlarini tozalash ishlari talab darajasida emas. 1953-yilning 20-yanvar holatidagi ma‘lumotga qaraganda viloyat bo‘yicha irrigatsiya inshootlarini tozalash ishlari plani 52 foizga bajarilgan.

Viloyat qishloq va suv xo‘jaligi tashkilotlari eskidan ekilib kelinayotgan hamda yangi sug‘orilishi reja qilingan yerlarni suv bilan ta‘minlash, meliorativ holatini yaxshilash ishlariga 15 ot kuchiga ega bo‘lgan jami: 3200 dan ortiq traktor, 69 ta ekskavator va ko‘plab boshqa yer qazish va tekislash texnikalarini jalb etadi¹⁶. Istiqbolda Markaziy Buxoro kollektori qurish, Janubiy-Buxoro tashlamasi zax suvlarini Qorako‘l vohasidan chiqarib borish, Moxonko‘l tashlamasida zamonaviy injinerlik tipidagi inshootlarni qurish ko‘zda tutildi. 1954-1955-yillar kollekt va drenaj tarmoqlari 8,5 mln³ga, Zarafshon daryosidan suv olishga mo‘ljallangan inshootlar sonini 300 taga yetkazish hamda Quyimozor suv ombori qurilish ishlarini yakunlashga qaror qilindi¹⁷.

¹³ Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шахри – 2500 ёшда. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 15.

¹⁴ Иститут “Узгипроводхоз” проектное задание Амукаракульского машинного оросительного канала. Ч. II. кн. 9. – Ташкент., 1958. – С. 12.

¹⁵ Buxoro viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-ro‘yxat, 136- yig‘ma jild, 83-varaq

¹⁶ Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro‘yxat, 906-yig‘ma jild, 33-varaq.

¹⁷ Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro‘yxat, 906-yig‘ma jild, 33-varaq.

1950-yillar oxirlarida viloyat irrigatsiya sohasida ijobiy siljishlarga erishdi. Chunonchi, 1959-yil 53328 ga sugʻoriladigan yerlar yangi sugʻorish tizimiga oʻtkazildi. 1649 ga yerlarda irrigatsiya-melioratsiya ishlari olib borildi, shundan 1223 ga qoʻriq, yangi sugʻorish tizimlari rejasiga asosan 87512 daraxt koʻchatlari ekildi¹⁸. Quyi Zarafon vohasi shoʻrlanishi va botqoqlanishini oldini olish maqsadida yirik kollektorlar: Markaziy Olot 16 km uzunlikda Olot tumanida, Shimoliy Buxoro 28 km uzunlikda Gʻijduvon tumanida, Naqib 20 km uzunlikda Romitan tumanida, Kattazaur 16,5 km uzunlikda Qiziltepa tumanida, Xargoʻsh 23 km uzunlikda Galaosiyo tumani va boshqalar qurilib foydalanishga topshirildi¹⁹.

Urush yakunlanishi bilan sovet ittifoqi boshqaruv apparatida oʻziga xos oʻzgarishlar amalga oshirildi. Bunga sabab sovet boshqaruv modeli 1920-1930-yillardagi favqulodda holatda shakllangan boʻlib²⁰, urush sharoitida ishlashga yoʻnaltirilgan edi. Shu boisdan sovet hukumati yuqori boshqaruv organlarini qayta ixtisoslashtirishga qaror qildi. Xususan, 1946-1950-yillarda SSSR davlat boshqaruv shakli direktiv tizimdan ijro tizimiga oʻtkaziladi. Yangi tizim xalq xoʻjaligining barcha soha va tarmoqlarni toʻla qamrab olishi hamda markazlashtirish, maʼmuriy buyruqbozlik prinsiplarini saqlab qolgan holda tashkil etilishi lozim edi. 1947-yilda SSSR Ministrlar Soveti tizimida bevosita rais oʻrinbosar sifatida 8 ta tarmoq byurolari tashkil topdi. Jumladan, qishloq xoʻjaligi byurosiga G.Malenkov tayinlanib, byuro 6 ministerlik va tashkilotni nazorat qilgan²¹.

Yangi qaror topgan ijro tizimida 1950-yil 11-yanvarda Oʻzbekiston SSR Ministrlar Soveti va SK KP(b) “Oʻzbekiston SSRda paxtachilikni yanada rivojlantirish toʻgʻrisida” gi №96 sonli qaror qabul qilindi. Unda mahalliy boshqaruv va xoʻjalik organlari sobiq direktiv tizim metodlari qatʼiy tanqid qilindi. Jumladan, Buxoro viloyatida partiya, sovet va qishloq xoʻjaligi organlari, kolxoz, MTS va sovxozlar hamkorligini taʼmin eta olmagan, viloyatda paxtachilikni rivojlantirish ishlariga yetarli eʼtibor qaratilmagani va boshqa qator kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgani tanqid qilindi.

1951-yil 31-yanvarda Buxoro viloyat Ijroiya qoʻmitasi Mehnatkashlar Xalq Deputatlar Kengashining navbatdagi yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Yigʻilish kun tartibida viloyat 1950-1951-yillarda yangi sugʻorish tizimiga oʻtish ahvoli masalasi qoʻyildi. Muhokamada Obljroqoʻm Oʻzbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan qabul qilingan (1950- yil 7-oktabrda №1816²²) qaror ijrosi taʼminlanmagani uchun qator xoʻjalik, tashkilot, muassasalarini jazoga tordi. Yangi sugʻorish tizimiga oʻtish jarayonidagi oqsash uchun Obljroqoʻm, viloyat paxtachilik boshqarmasi, suv xoʻjaligi va uning joylardagi organlari ayblandi²³.

¹⁸ Аму-Бухоро ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси жорий архиви, 1950-ййғма жилд, 75-варақ

¹⁹ М.М.Тагиев. Из истории ирригационного строительства низовьев Зарафшанской долины. – Тошкент: Фан, 1978. – С. 52.

²⁰ Шухрат Эргашев. Эрк истар кўнгил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 51.

²¹ К.Г.Ильин. Организация центральных органов исполнительной власти СССР в послевоенный период (1946 – 1950 гг) Автореферат...кан. истор. наук. – Москва, 2010. – С. 22.

²² Бухоро viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-roʻyxat, 149-yigʻma jild, 369-varaq

²³ Бухоро viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-roʻyxat, 136-yigʻma jild, 31-varaq

1953-yilda Stalin vafot etishi bilan boshqa sohalarda bo'lgani singari O'zbekiston SSR suv xo'jaligi sohasi boshqaruv tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladi. Xususan, 1953-yilda O'zbekiston SSR Qishoq xo'jaligi va Tayyorlov Ministrligining №699 qarori qabul qilindi. Qaror O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va SK KPSS tomonidan 1953-yilning 20-oktabrida qabul qilingan "O'zbekistonda suv xo'jaligini yanada rivojlantirish va sug'oriladigan yerlar hajmini oshirish to'g'risida"gi qarorining ijrosini ta'minlashga qaratiladi. Unda, 1953-1958-yillarda respublika irrigatsiya va meloratsiya tizimlari holatini tubdan yaxshilanishi ko'zda tutildi²⁴.

1954-yildan boshlangan "iliqlik" davri markaziy davlat organlari o'z tizimida uchrayotgan muammolarni ochiq muhokama qilinishiga olib keldi. Masalan, viloyat sug'orish tizimlari haligacha to'la-to'kis ishlab chiqarish tashkilotiga aylana olmayotgani, boshqarmalar sug'orish tizimida ishlab turgan inshootlarni texnik ta'minoti va me'yorida ishlash vazifasini uddalay olmayotgani ta'kidlandi²⁵.

N.S.Xrushchev hukumati davri o'zgarishlaridan biri 1955-yil 18-iyunda amalga oshirildi. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va SK KPSS tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston SSR suv xo'jaligi organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi №425 qaroriga muvofiq, Buxoro viloyat suv qurilish boshqarmasi tugatildi. Uning negizida joriy yilning 1-iyulida Buxoro viloyati sug'orish tizimlari Bosh boshqarmasi tashkil etildi²⁶.

1962-yil SK KPSS mart Plenumi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmini oshirishni partiya va xalq ishi deb e'lon qildi²⁷. Yig'ilish qishloq xo'jaligi sohasida yangi sahifani ochilishiga zamin hozirladi. Plenumning "Qishloq xo'jaligi boshqaruvini takomillashtirishda partiya vazifalari to'g'risida"gi qaror hamda SK KPSS va SSSR Ministrlar Soveti tomonidan qabul qilinadi. "Qishloq xo'jaligi boshqaruv tizimini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari tarmoq boshqaruvda o'zgarishlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston SSR viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSRda sovet organlarini qayta tashkil etish vazifasi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Suv Xo'jaligi Ministligi tuman va viloyat sug'orish tizimida mavjud uchastkalar faoliyatini tugatishga qaror qildi. Tugatilgan uchastkalar negizida mustaqil balans va shtat birliklariga ega bo'lgan 54 ta tuman sug'orish tizimlari boshqarmasi tashkil etildi²⁸.

O'z navbatida 1965-yilda tizim boshqaruvchi qayta isloh qilindi. SK KPSS va SSSR Ministrlar soveti tomonidan 1965-yil 2-oktabrida "Sanoat organlari va boshqa davlat boshqaruv organlarini o'zgartirish to'g'risida"gi №728 qaror asosida "Sug'orma dehqonchilik va suv xo'jaligi davlat ishlab chiqarish komiteti"

²⁴ Buxoro viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-ro'yxat, 125-yig'ma jild, 265-varaq

²⁵ Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 880-yig'ma jild, 264-varaq

²⁶ Buxoro viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 1-varaq

²⁷ Правда. 23 март, 1962 йил

²⁸ Аму-Бухоро ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси жорий архиви 98-варақ

tugatilib, uning o‘rnida “SSSR Melioratsiya va Suv xo‘jaligi Ministrligi” tashkil etildi²⁹.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston SSR qishloq va suv xo‘jaligi doimiy muammolar girdobida bo‘lgan soha edi. Urushdan so‘ng yanada mustahkamlangan ma‘muriy buyuruqbozlik, direktiv boshqaruv jamiyatda partiya va ijro organlari mutlaq hukmronligini ta‘minladi. Xususan, suv xo‘jaligi tizimida o‘rnatilgan direktiv boshqaruv belgilangan rejalarni amalga oshirish, korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishda jiddiy to‘siq bo‘ldi.

“Viloyat irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini loyihalash va suv qurilishi” nomli tadqiqotning ikkinchi bobida sug‘orish tizimlarini loyihalash, irrigatsiya-melioratsiya va gidrotexnik obyektlar qurilishi, qurilishlarni ishchi kuchi va kadrlar bilan ta‘minlash kabi masalalar tahlil doirasiga tortilgan.

Suv xo‘jaligi qurilishi uchun ajratilgan sarf-xarajatlarni qisqartirish, inshootlarni ish unumdorligini oshirish, suv zahiralardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash borasidagi vazifalar puxta va mukammal loyihalashni talab etardi. O‘zbekiston SSR Melioratsiya va Suv xo‘jaligi Ministrligi tizimida irrigatsiya va meliorativ obyektlari, yerlarni kompleks o‘zlashtirish, kollektor-drenaj tarmoqlarini loyihalashtirish maqsadida loyiha-smeta ishlari bilan shug‘ullanuvchi bir qator muassasalar tashkil topdi. “Uzgidrovodxoz”, “Ferganagiprovodxoz”, “Samarqandgiprovodxoz”, “Uzvodpromproekt”, “Uzgirovodxoz”, Sredazgiprovodxlopok hamda viloyat xo‘jalik ishlab chiqarish boshqarmalari, QASSR Amudaryo delta boshqarmasi qoshidagi 12 ta loyihalash gruppasi shular jumlasidandir³⁰. 1938-yilda irrigatsiya – melioratsiya loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan (Toshkent, Andijon, Samarqand) kantoralari 1950-yilda “Uzvodpriz” trestiga birlashtirildi. Mazkur tashkilotlar 1951-yil yanvaridan “Sredazgiprovodxlopok” instituti filiali sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1954-yilga kelib qayta tashkil etilgan “Uzgirovodxoz” mustaqil loyiha-qidiruv institutiga aylantirildi³¹. Intitut O‘zbekiston SSR suv xo‘jaligi qurilish tarmoqlari asosiy loyiha-qidiruv tashkiloti hisoblangan.

Sovet hukumati O‘zbekiston SSR sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish, shu asnoda yangi irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini takomillashtirishga urinadi. Natijada, deyarli har yil umumiy respublika uchun yoki maxsus oblast irrigatsiya tizimlarini takomillashtirishga mo‘ljallangan qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 1952-yil 12-aprelda “Buxoro oblastida paxta xomashyosi yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qaror qabul qilindi. Qaror ijrosi yuzasidan berilgan hisobotlarga nazar tashlansa, ko‘rilgan choralar o‘z samarasini berib, paxta hosildorligi so‘nggi 2-3 yil ichida 22 sentnerga yetkazilgani ma‘lum bo‘ladi³². Ayniqsa, bu davrda Quyimozor suv ombori qurilishi o‘zining avj

²⁹ Ведомости Верховного Совета СССР. – М.: Издание Верховного Совета СССР, 1965. – № 39 (6 октября). – С. 283.

³⁰ Жўрабеков И. Ўзбекистонда сув хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – Б. 20.

³¹ История создания института – [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <http://osl.uz/ru/o-nas/vakansii/18-o-kompanii?vi=1>

³² Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro‘uyat, 906-yig‘ma jild, 15-varaq

pallasiga chiqqan edi. Ushbu obyektida 1952-yilda 14,7 mln rubl hajmdagi qurilish - montaj ishlari bajarildi³³

1951-yil Buxoro viloyat G'ijduvon va Shofirkon tumanlarida tuzilgan sxemalarni katta qismi magistral kanallar bilan bog'lanmagan, kolxozlarning ichki sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish vazifalari ko'rsatilmagan holda tasdiqlandi. Sug'oriladigan uchastkalarni mustakamlash loyihalarini tayyorlash jarayonida materiallar yetarlicha tahlil etilmagan hamda ularga zaruriy tuzatishlar kiritilmagan. Shofirkon tumani Denov qishloq soveti Stalin kolxozida tayyorlagan 14 loyiha hujjatida 9 ta uchastkada jami: 289 gektar yer tanlagan bo'lib, ularning doimiy suv manbasi ko'rsatilmagan³⁴.

Odatda, ishlab chiqilgan loyihada yangi sug'oriladigan yerlar bilan irrigatsiya tarmoqlari kompleks aks ettirilishi shart bo'ladi. Biroq 1958-yildagi holat ko'zdan kechirilganida, sohadagi tadbirlarni amalga oshirishda kompleks yondashuv hali to'laqonli shakllanib ulgurmaganing guvohi bo'lindi. Yerlarni tayyorlash loyihasi kollektor-drenaj va sug'orish tarmoqlari qurilishidan sezilarli ortda qolgan, shuningdek, gidrotexnik inshootlar, uy-joy va yo'llar qurilishi muddatidan kechiktirilgan³⁵. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga mo'ljallangan loyihalar ilmiy-nazariyalar asosida yaratilib, loyiha sinovi asosan laboratoriya sharoitida o'tkazilgan. Biroq amalda loyihalarning kamchilik va nuqsonlari yaqqol ko'rinib qoladi. Misol uchun, ochiq kollektor-drenaj tarmoqlariga nisbatan yopiq, ishonchli konstruksiyaga ega gorizontol kollektor-drenaj tarmoqlari o'zining uzun hamda gonchar drenaj quvurlari bilan ustuvorlik qiladi³⁶. Vertikal drenajlarning dastlabki sinovi esa "Bahouddin" qishloqchasida o'tkazildi. Natijada gorizontol drenajlarga nisbatan vertikal drenajlarning afzalliklari ma'lum bo'ldi. Xususan, vertikal drenaj qurilishi hamda ishga tushirish sarf-xarajatlari sezilarli qisqardi³⁷. 1963-yilda ilk bor Buxoro tuman Oxun Boboyev kolxozida vertikal drenaj tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 10 ta burovix skvajni qurildi³⁸.

XX asr 50-yillarida O'zbekiston suv xo'jaligi qurilishida yangi davr boshlandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish O'zbekiston irrigatorlari oldiga ham ulkan, shu bilan birga, mas'uliyatli vazifalar: 4-5 yilda 1,5 mln ga yerda 570 mln kubometr tuproq ishlarini bajarish, buning uchun esa kuniga 60 ming km ichki xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlarini tozalash, 30 mln kubometr tuproq chiqarish lozim edi³⁹.

Urushdan keyin Buxoro viloyat suv qurilishi jarayoni uch tarixiy bosqichga bo'linadi: 1)1950 – 1962-yillar mashina kanali ishga tushirilgunga qadar bo'lgan bosqich; 2)1959 – 1962-yillar Amu-Qorako'l mashina kanali qurilishi bosqichi (AQK); 3)1963 – 1975-yillar Amu-Buxoro mashina kanali birinchi va ikkinchi

³³ O'zbekiston Milliy arxivi 2483-fond, 1-ro'yxat, 789-yig'ma jild, 21-varaq

³⁴ Buxoro viloyat davlat arxivi 111-fond, 1-ryo'xat, 136-yig'ma jild, 85-varaq

³⁵ Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 1144-yig'ma jild, 150-varaq

³⁶ Buxoro viloyat davlat arxivi 1196-fond, 1-ro'yxat, 236-yig'ma jild, 326-varaq

³⁷ Buxoro viloyat davlat arxivi 1196-fond, 1-ro'yxat, 236-yig'ma jild, 334-varaq

³⁸ Buxoro viloyat davlat arxivi 1196-fond, 1-ro'yxat, 321-yig'ma jild, 21-varaq

³⁹ Ирригация Узбекистана (в 4-х т.), Т.1. –Ташкент: Фан, 1975. – С. 202

navbatlarining foydalanishga topshirishi bosqichi⁴⁰. Birinchi bosqichda viloyatda tuzilgan 14 ta brigada MTSlar vositasida kolxozlarda sho‘rlangan va yangi sug‘orishga tayyorlangan yerlarga xizmat ko‘rsatish uqtirildi. Suv xo‘jaligi asosiy vazifasi sug‘orish tarmoqlari ekspulatsiyasi, irrigatsiya va kollektorlar qurish qilib belgilanadi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirish maqsadida budjetdan 18 mln rubl mablag‘ ajratildi⁴¹. 1951-yilning apreliga qadar Shoxrud kanali eski bosh to‘g‘oni va Xarxur gidrouzeli joylashgan tuman hududida, Vobkentdaryo muzdan tozalanib, 16 ming kubometr tuproq ishlari bajarildi⁴².

O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining 1953-yil oktabrda bo‘lib o‘tgan VII plenumi KPSS MK sentabr (1953) plenumining qarorlarida Buxoro viloyatida 16 ming ga yerni sug‘orish maqsadida Quyimozor suv ombori qurilishini yakunlash, Zarafshon daryosida Toshrobot gidrouzel va suv chiqaruvchi magistral kanal qurish, Zarafshon daryosida Karmana gidrouzelini qurish va kanalni rekonstruksiya qilish, Xarxur magistral kanalini rekonstruksiya qilish orqali Vobkentdaryoni Xayrabod kanaliga bog‘lash, kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish vazifalari belgilanadi⁴³.

Viloyat ekin maydonlarining suv ta‘minotini yaxshilash dasturlari yer osti suvlaridan unumli foydalanishni ham nazarda tutadi. 1962-yilda qurilish-ta‘mirlash tashkilotlari tomonidan yerosti suvlaridan foydalanish maqsadida 120 ta brovix skvajni qurildi va 508 skvajni nasoslar bilan jihozlandi. Shuningdek, 7.6 kubometr/sek suv olish uchun kollektor va tarnsheylar hamda Amu-Qorako‘l kanalida 8 kubometr/sek suv olishga mo‘ljallangan PG-35x2 40 dona nasoslar o‘rnatildi⁴⁴. Amu-Qorako‘l mashina kanali qurilishi nafaqat viloyat, respublika, balki SSSR ahamiyatidagi qurilishlar qatoriga kiradi. 1962-yil 6-iyulda O‘zbekiston KP MQning byurosi O‘zbekiston SSR Suv Xo‘jaligi Minsitrligiga qarashli “Uzglavvodstroy” quruvchilar jamoasi hamda O‘zSSR Qurilish Minstrligi, “Sredaztranstroy” va O‘zSSR Avtomobil yo‘llari ishtirokida kanal qurilishini muddatidan ilgari tugallash vazifasining dolzarbligini ta‘kidlab o‘tadi⁴⁵. Hukumat e‘tibori va ishonch bilan olib borilgan shiddatli qurilishlar asosida Amu-Qorako‘l kanal qurilishi o‘z muddatida yakunlandi. Uchatkalarining muhim obyektu Olot nasos stansiyasi umumiy quvvati 46,9 kubometr/ga teng bo‘lib, suvni 8,7 m balandlikka ko‘tarib beradi. Ushbu nasos stansiya 1962-yilning 1-iyulidan ishlay boshladi.

1963-yil 1-fevralida O‘zbekiston SK KPSS va O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti №75 “Amu-Buxoro mashina kanalini qurish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Amu-Buxoro kanali birinchi navbati qurilishida 57 mln kubometrlik tuproq ishlari, inshootlar uchun 30 ming tonna metall sarflandi. Qurilishning dastlabki

